

ELEKTRON TIJORAT LOYIHALARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

*Xamidova Nigina Valijonovna
O‘zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi*

Annotatsiya. Maqolada elektron tijorat loyihalarini soliqqa tortish amaliyotining hozirgi holati tahlil qilinadi hamda uning samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Raqamlı iqtisodiyot sharoitida soliq tizimini modernizatsiya qilish, soliq bazasini kengaytirish va soliq tushumlarini oshirish uchun elektron tijoratni tartibga soluvchi huquqiy va institutsional asoslarni takomillashtirish zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, ilg‘or xalqaro tajribalar tahlil qilinib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, soliqqa tortish, raqamlı iqtisodiyot, soliq siyosati, soliq islohoti, fiskal tartibga solish, soliq tushumlari.

Abstract. This article analyzes the current state of taxation practices for e-commerce projects and explores ways to improve their efficiency. In the context of a digital economy, it emphasizes the need to modernize the tax system, expand the tax base, and increase tax revenues by enhancing the legal and institutional frameworks regulating e-commerce. The paper also reviews international best practices and proposes recommendations for adapting them to local conditions.

Keywords: e-commerce, taxation, digital economy, tax policy, tax reform, fiscal regulation, tax revenue.

KIRISH

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida raqamlı texnologiyalarning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi natijasida elektron tijorat (e-commerce) sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida an’anaviy savdo shakllarining cheklanishi elektron savdoning keskin rivojlanishiga turtki berdi. Bugungi kunda elektron tijorat nafaqat mahsulot va xizmatlarni internet orqali sotish bilan cheklanmay, balki yangi ish o‘rinnlari yaratish, tadbirdorlikni rag‘batlantirish, hamda davlat byudjetiga tushadigan soliqlarni oshirishda ham muhim rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda elektron tijoratni rivojlantirish, uni huquqiy jihatdan tartibga solish va soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun (2014-yil 29-apreldagi O‘RQ-370-son) elektron savdo munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu

qonunga muvofiq, elektron tijorat faoliyati bilan shug‘ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar ham, soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tishlari va belgilangan tartibda soliqlarni to‘lashlari shart.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6009-sonli Farmonida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, shu jumladan elektron tijorat infratuzilmasini kengaytirish, soliq hisobotlarini avtomatlashtirish va bu orqali soliq tushumlarini oshirish muhim vazifalar sifatida belgilangan. Shuningdek, Davlat soliq qo‘mitasining elektron soliq tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan faoliyati ham elektron tijoratni qonuniy va shaffof yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, amaliyatda elektron tijorat bilan shug‘ullanayotgan sub’yektlarni to‘liq aniqlash, ularning faoliyatini monitoring qilish va soliqqa tortish bo‘yicha tizimli muammolar mavjud. Ko‘plab tadbirkorlar internet orqali savdo faoliyatini rasmiylashtirmasdan amalga oshirib kelmoqdalar, bu esa byudjetga tushadigan soliqlar hajmining kamayishiga olib keladi. Shuningdek, xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, elektron tijoratni muvaffaqiyatli soliqqa tortish uchun soliq tizimi yuqori darajada moslashuvchan, texnologik va shaffof bo‘lishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — elektron tijorat sub’yektlarini soliqqa tortish amaliyotini chuqur o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan huquqiy, institutsional va axborot-texnologik choralarning ishlab chiqishidan iboratdir. Elektron tijorat sohasida adolatli va samarali soliq siyosatini shakllantirish orqali davlat byudjetining daromad qismini mustahkamlash, tadbirkorlik sub’yektlarini rasmiylashtirish va iqtisodiyotning ochiqligini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat global darajada iqtisodiy o‘sishning muhim omiliga aylangan. Biroq, elektron savdoning o‘sishi bilan birga, uni soliqqa tortish borasida qator muammolar ham yuzaga chiqmoqda. Asosiy muammolarga soliq bazasining torayishi, norasmiy savdo hajmining oshishi va milliy soliq qonunchiliklarining zamonaviy texnologiyalarga mos kelmasligi kiradi.

Ko‘plab mamlakatlar ushbu muammolarni hal qilish uchun raqamli iqtisodiyotga mos soliq siyosatini ishlab chiqishga intilmoqda. Xususan, elektron tijorat faoliyatining tezkorligi, chegaraviy savdolar va tranzaktsiyalarning ko‘p hollarda transmilliy xarakterda bo‘lishi davlatlarni xalqaro yondashuvlarni qabul qilishga undamoqda.

Dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlarida elektron tijoratni soliqqa tortish bo‘yicha amaliyotlar allaqachon shakllangan va muvaffaqiyatli ishlamoqda:

- Yevropa Ittifoqida elektron tijorat sohasida qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS, VAT) yagona tizim asosida yig‘iladi. 2021-yildan boshlab, Yevropa Komissiyasi yangi “One Stop Shop” (OSS) mexanizmini joriy etdi, bu orqali har

qanday onlayn sotuvchi o‘z mamlakatida ro‘yxatdan o‘tib, butun Yevropa Ittifoqi bo‘ylab savdodan QQS to‘lashi mumkin. Bu tartib byurokratik yukni kamaytirish va soliq yig‘uvchanligini oshirishga xizmat qilmoqda.

- AQShda har bir shtat elektron savdoga oid o‘zining soliqqa tortish qoidalariga ega. 2018-yilgi “South Dakota v. Wayfair” qaroriga muvofiq, elektron savdo kompaniyalari (shu jumladan Amazon, eBay) faoliyat yuritayotgan shtatlarda soliq to‘lash majburiyatiga ega bo‘ldi. Shuningdek, “Marketplace facilitator” qonunlari orqali platformalar orqali amalga oshirilgan tranzaktsiyalar uchun soliq bevosita platformaning o‘zidan undiriladi.
- Avstraliyada 2017-yildan boshlab xalqaro onlayn sotuvlar uchun GST (General Sales Tax) tatbiq etilgan. Har qanday xorijiy sotuvchi yoki platforma, agar u Avstraliya bozorida mahsulot yoki xizmat sotayotgan bo‘lsa, GST to‘lashga majburdir.
- Hindistonda GST tizimi orqali elektron tijorat operatorlari (ECO) alohida ro‘yxatdan o‘tkazilib, ular orqali amalga oshirilgan har bir tranzaktsiyadan avtomatik ravishda soliq olinadi. Bundan tashqari, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi real vaqtli ma’lumot almashinuvi jarayoni soliqqa tortishning shaffofigini ta’minlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasida asosiy huquqiy asos sifatida 2014-yilda qabul qilingan “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun amal qiladi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari ko‘rilmoxda. Biroq, elektron tijoratni soliqqa tortish borasida hali ham bir qator tizimli muammolar mavjud:

- Elektron savdo bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning aksariyati norasmiy faoliyat yuritmoqda;
- To‘lovlar ko‘p hollarda nazorat qilinmaydigan shaklda amalga oshirilmoqda;
- Soliq organlari raqamli tranzaktsiyalarni real vaqt rejimida kuzata olmayapti.

Yuqorida keltirilgan xalqaro tajriba asosida quyidagi saboqlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Platforma asosida soliqqa tortish tizimini joriy etish — soliq organlari mahalliy savdo platformalari bilan bevosita hamkorlikda real vaqtli ma’lumot almashinuvi orqali soliq yig‘imlarini avtomatlashtirishi lozim.
2. Raqamli ro‘yxatga olish va monitoring tizimi — har bir onlayn savdo bilan shug‘ullanuvchi sub’yekt identifikatsiyalanib, ularning daromadlari ustidan nazorat yo‘lga qo‘yilishi kerak.
3. Yagona soliq deklaratsiyasi tizimi — OSS yoki GSTga o‘xhash mexanizm orqali tadbirkorlar bir portal orqali barcha soliq majburiyatlarini ado etishlari mumkin bo‘lgan tizim joriy etilishi kerak.

4. Qonunchilikni moslashtirish — yangi texnologiyalar, mobil savdo, xalqaro elektron xizmatlar kabi yo‘nalishlar uchun qonunchilikda aniq belgilangan soliq rejimlari ishlab chiqilishi kerak.

1-jadval**Turli mamlakatlarda elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmlari va natijalari**

Davlat	Soliq tizimi turi (QQS/GST)	Tatbiq etilgan yili	Platforma orqali yig‘im	Yillik soliq tushumi (sohada)	Izoh
Yevropa Ittifoqi (EU)	QQS (VAT OSS tizimi)	2021	Ha (OSS orqali)	~€17 milliard (2022)	OSS mexanizmi orqali barcha davlatlar uchun yagona ro‘yxatdan o‘tish tartibi joriy etilgan.
AQSh	Savdo solig‘i (Sales Tax)	2018 (Wayfair qarori)	Ha (marketplace orqali)	~\$23 milliard (2023)	Har bir shtatda alohida soliq siyosati mavjud, platformalar vositachilik qiladi.
Avstraliya	GST (10%)	2017	Ha	~\$1,2 milliard (2022)	Chet el sotuvchilari uchun ham GST majburiy bo‘lgan.
Hindiston	GST (raqamli soliq)	2017	Ha (ECO orqali)	₹14,3 trillion (GST umumiy tushum, 2023)	E-commerce operatorlari soliq yig‘ish va deklaratsiya qilish majburiyatiga ega.
O‘zbekiston	QQS / Yagona soliq turi	2014 (Qonun), 2020+	Cheklangan	Rasmiy ma'lumot yo‘q	Hozircha elektron savdo bo‘yicha aniq statistik soliq tushumlari mavjud emas, lekin sektor jadal rivojlanmoqda.

Mazkur jadvalda elektron tijoratdan tushadigan soliqlarni yig‘ish bo‘yicha bir nechta mamlakatlarning tajribasi tahlil qilingan. Har bir ustun orqali soliq tizimining turi, uni joriy qilish yili, platformalar orqali yig‘imlar mavjudligi, yillik soliq tushumlari va qisqacha izohlar keltirilgan. Jadval mamlakatlar o‘rtasidagi siyosiy va texnologik yondashuvlar farqini ko‘rsatadi.

- Yevropa Ittifoqi (EU): 2021-yildan boshlab joriy etilgan OSS (One Stop Shop) tizimi orqali har bir onlayn sotuvchi faqat o‘z mamlakatida ro‘yxatdan o‘tib, barcha boshqa YI davlatlariga sotilgan mahsulotlar uchun QSNI bir joyda to‘lay oladi. Bu soliq yig‘uvchanligini oshirish va byurokratik yukni kamaytirishga xizmat qiladi. Soha bo‘yicha soliq tushumlari 17 milliard yevroga yetgan.

- AQSh: 2018-yilgi South Dakota v. Wayfair sud qaroridan so‘ng, har bir shtat o‘ziga xos savdo solig‘i tizimini qo‘llamoqda. Onlayn platformalar, masalan Amazon yoki Etsy, orqali amalga oshirilgan savdolar uchun “marketplace facilitator” qonunlari orqali soliq platformaning o‘zidan undiriladi. 2023-yil holatiga ko‘ra ushbu sektor bo‘yicha soliq tushumlari 23 milliard AQSh dollariga yetgan.

- Avstraliya: 2017-yildan beri GST (General Sales Tax) xorijiy elektron sotuvchilarga ham tatbiq qilinmoqda. Ya’ni, Avstraliya hududida mahsulot yoki xizmat sotayotgan chet el kompaniyalari ham ro‘yxatdan o‘tib, GST to‘lashga majbur. Ushbu yondashuv yiliga taxminan 1,2 milliard dollar soliq tushumini ta’minlamoqda.

- Hindiston: Elektron tijorat operatorlari (ECO) orqali har bir tranzaktsiya avtomatik tarzda GST tizimi asosida soliq tortiladi. Davlat bilan xususiy platformalar o‘rtasida ma’lumotlar real vaqt rejimida almashiladi, bu shaffoflikni oshiradi. 2023-yilda Hindiston umumiy GST tushumi 14,3 trillion rupiyaga yetgan.

- O‘zbekiston: 2014-yilda qabul qilingan “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun va 2020-yildan boshlab “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida elektron tijorat rivojlantirilmoqda. Biroq hozirda soliq tushumlari bo‘yicha aniq ochiq ma’lumotlar mavjud emas, shuningdek platforma orqali soliq yig‘ish tizimi to‘liq shakllanmagan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlarda elektron tijorat orqali soliqlarni samarali yig‘ish uchun maxsus tizimlar (OSS, GST, Marketplace facilitator) joriy etilgan. O‘zbekistonda esa bu yo‘nalish bo‘yicha yutuqlar mavjud bo‘lsa-da, ilg‘or xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda soliq siyosatini yanada takomillashtirish lozim.

XULOSA

Elektron tijoratning jadal rivojlanishi uni samarali va adolatli soliqqa tortish tizimini yaratishni talab etmoqda. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda huquqiy va institutsional asoslar mavjud bo‘lsa-da, xalqaro tajriba bilan solishtirilganda tizimni takomillashtirish zarur. Norasmiy savdoning yuqoriligi, raqamli monitoringning

zaifligi va zamonaviy yondashuvlarning yetishmasligi mavjud muammolar sirasiga kiradi.

Takliflar:

1. Qonunchilikni yangilash – zamonaviy texnologiyalar va xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda qonunlarni takomillashtirish.
2. Platforma orqali soliq yig‘ish tizimini joriy qilish – mahalliy e-commerce platformalar bilan integratsiyani kuchaytirish.
3. Onlayn savdolarni raqamli identifikatsiya qilish – har bir elektron sotuvchini ro‘yxatdan o‘tkazish va kuzatish.
4. Soliq imtiyozlari orqali rasmiylashtirishga rag‘bat berish – kichik biznesni norasmiy sektorni tark etishga undash.
5. Xalqaro tajribalarni moslashtirish – OSS, GST, Marketplace facilitator kabi mexanizmlarni mahalliy sharoitga mos holda joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni, 2014-yil 29-aprel, O‘RQ-370-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-6009-son, 2020-yil 29-iyun.
3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, yangi tahriri, 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan.
4. European Commission. (2021). VAT e-commerce package: Modernising VAT for cross-border e-commerce. <https://ec.europa.eu>
5. OECD. (2020). The impact of the growth of the digital economy on the tax system. OECD Publishing. <https://www.oecd.org>
6. South Dakota v. Wayfair, Inc., 585 U.S. ____ (2018). United States Supreme Court decision.
7. Australian Taxation Office. (2022). GST on low value imported goods. <https://www.ato.gov.au>
8. Government of India. (2023). Goods and Services Tax (GST) Portal. <https://www.gst.gov.in>
9. Karimov A.S. (2022). Elektron tijoratda soliqqa tortishning xorijiy tajribalari va O‘zbekiston uchun tavsiyalar. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, №3, 45–52-bet.
10. Rasulov N.K. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida fiskal siyosatni modernizatsiya qilish. *Soliq va moliya* jurnali, №2.